

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYA TARKIBI VA TAMOYILLARI

Yulduz Xayrullakizi Hudoyberdiyeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ikromjon Gulomjonovich Tursunov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya:

maqolada ta'lrim tizimida pedagogik kompetensiya tuzilishi va tamoyillari ko'rib chiqilgan, qisqa tahlil va muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik kasbiy kompetentlik, "Individual rivojlantirish dasturi", o'z-o'zini rivojlantirish, pedagogning o'z ustida ishlashi, pedagogning o'z ustida ishslash bosqichlari, o'z-o'zini baholash.

"Kompetentlik" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalarining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rinn egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur? Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lrim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.


Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi (1-rasm):



1-rasm. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faoliik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

- psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;
- metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;
- axborotli kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;
- kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;
- innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

- kommunikativ kompetentlik – ta'lif jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobjiy ta'sir ko'rsata olish
Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.
Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.
Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

XULOSA

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug'aviy jihatdan "qobiliyat", mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ma'nosini anglatuvchi kompetentlik negizida muayyan sifatlar namoyon bo'ladi. Xususan, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi. Bir qator, xususan, A.K.Markova hamda B.Nazarovalarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o'tilgan. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirishda pedagogga "Individual rivojlanish dasturi" qo'l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo'lgan sifat, BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin.

REFERENCES

1. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashrièti, 2013.
4. Akhrolovich, N. R. (2022). Influence of mineral fertilizers of different norms on the yield and product quality of white cabbage varieties. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 500-507.
5. Nizomov, R.; Makhamadaminov, Sh. (2022). Development of a method for producing a quality seed product by leaving the onion in place in the Tashkent region of Uzbekistan. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 2108–2119.
6. Abdujabbarova, F. A. (2020). The methods of studying and analyzing classical poetic arts in literature lessons. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 1637-1641.
7. Abdujabbarova, F. A. (2020). Teaching Uzbek Language and Literature Based on Interactive Technologies. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 20(2), 2555-2558.

8. Abdujabbarova, F. A. (2020). Historical and cultural background od typological study Russian and Uzbek literature. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 2555-2558.
9. Abdujabbarova, F. A. (2020). Shavkat Rahmonning "Sulaymon tog'I etegida o'laganlarim" she 'rini o'rganish usullari. *Filologok ta'lifni takomillashtirish*, 1(1), 55-58.
10. Сейтниязов, К. М. (2023). Методы исследования в топонимике. *Развитие науки и образования*, 1(1), 101-106.
11. Сейтниязов, К. М. (2023). Некоторые виды трансформации топонимов. *Science and Education*, 4(2), 1700-1704.
12. Сейтниязов, К., Шерипова, Г. (2020). Топонимларнинг классификация турлари. Республикалық Илимий-теориялық онлайн конференция, 1(1), 70-72.
13. Seitniyazov, K. M., & Baltabayev, O. O. (2020). Methods for toponymical research of objects. *Fan va jamiyat*, 1(1), 28-29.
14. Madraximova, Z., & Toymbayeva, D. (2022). Ekologiya o 'qitish nazariyasi va metodikasining shakllanish manbalari. *Science and Innovation*, 1(B8), 2409-2411.
15. Nigmatov, Askar, Madrakhimova, Zulfiya, Ishankulova, Komila (2020). Geotourism: Problems and Solutions on the Example of Uzbekistan. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 21(1), 14-21.
16. Миршарипова, Г. К., Мустафақулов, Д. М., Қаршибоева, Л. Қ., Мадраҳимова, З.Н. (2020). Сирдарё вилояти шароитида судан ўти ва мошни соф ҳолда ҳамда аралаш экилганда ўсиш ва ривожлантиришга экиш меъёрининг таъсири. Ўзбекистон аграр фани хабарномаси, 3(81), 97-101.
17. Умматова, М. Б., Мадраҳимова, З. Н., Жавлонова, Д. Й. (2019). Талабарга экологик билимларни сингдириш-давр талабидир. *Фаол инвестицион мухитни шакллантириш*, 1(1), 11-14.
18. Mirxalilova, N. A., & Davlatova, M. A. (2022). TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURIDA MIQDOR TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(9), 282-285.
19. Mirxalilova, N. A. (2022). O'qish savodxonligini oshirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining o'rni. *Maktabgacha va boshlang'ich ta'larning dolzARB masalalari: muammo, echimlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari*. Farg'onA, 175-178.
20. Махмудова, Д. М., & Мирхалилова, Н. А. (2021). ТАЛАБАЛАРДА МАТЕМАТИК САВОДХОНЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ. *Scientific progress*, 2(4), 476-480.
21. Maxmudova, D. M., & Mirxalilova, N. A. (2021). "MENTAL ARIFMETIKA" KURSLARINI TA'LIM KLASTERI ASOSIDA TATBIQ QILISH. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 3), 100-104.
22. Mirxalilova, N. A. (2021). PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI VOSITASIDA O'ZBEKISTONDA MATEMATIKA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 160-163.
23. Maxmudova, D. M., & Mirxalilova, N. A. (2021). "PISA" XALQARO DASTURIDA MATEMATIK SAVODXONLIK. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1476-1480.
24. Akhmedov, B. A. (2022). Using of Information Teaching Technologies in the Teaching Physics in Higher Education. *NeuroQuantology*, 10(10), 524-536.